TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KOMPETENSIYALARINI SHAKLANTIRISHDA BAHOLASH MEZONLARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Bahronova Shaxlo Islom qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya darslarida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shaklantirishda xalqaro baholash mezonlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari, ularning turlarini o‘rganish, ta’limiy vositalarni tanlash mezonlari va ta’lim jarayonida qo‘llash usullari haqida.

Kalit so‘zlar: zamonaviy axborot-aloqa tizimlari, komprtensiya, xalqaro baholash, mustaqil ta’lim, dasturiy ta’lim vositalari, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, innovatsion ta’lim, individual faollik, kreativlik, mobil dastur, pedagogik ta’lim vositalari, test dasturlari, texnologiya fani, texnologiyani o‘qitish texnologiyasi, texnologik jarayonlar.

Аннотация: В статье рассматриваются дидактические возможности использования международных критериев оценки при формировании компетенций учащихся на уроках технологии, изучаются их виды, критерии отбора средств обучения и методы их использования в образовательном процессе.

Ключевые слова: современные информационно-коммуникационные системы, компетентность, международная оценка, самостоятельное обучение, программные средства обучения, самостоятельное мышление, творческое мышление, инновационное обучение, самостоятельная деятельность, креативность, мобильное приложение, педагогические средства обучения, тестовые программы, наука о технологиях, технология обучения технологиям, технологические процессы.

Abstract: This article discusses the didactic possibilities of using international assessment criteria in forming students' competencies in technology lessons, studying their types, criteria for selecting educational tools, and methods of using them in the educational process.

Keywords: modern information and communication systems, competence, international assessment, independent learning, software learning tools, independent thinking, creative thinking, innovative learning, individual activity, creativity, mobile application, pedagogical learning tools, test programs, technology science, technology teaching technology, technological processes.

Kirish

So‘nggi yillarda yurtimizda yuz berayotgan keskin yangilanish va tub o‘zgarishlar insoniyat hayotidagi barcha sohalarni globallashuv va

ISSN 3030-3907

integratsiyalashuv jarayonlari nuqtai nazaridan yangicha qarashlar, tushunchalar va munosabatlar bilan qayta ko‘zdan kechirishni taqazo etmoqda. Hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab har bir sohada globallashuv va integratsiya jarayonlari o‘z aksini ko‘rsatmoqda. Shu qatorda ta’lim ham davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylandi va ushbu sohada ta’limni yangicha innovatsion g‘oyalar asosida rivojlantirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirila boshlandi.

Jamiyat va hayotda sodir bo‘layotgan yangilanishlar ta’lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga zamin yaratadi, natijada yangicha innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o‘rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bahoning pedagogik - psixologik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarni intellektual - ijtimoiy rivojlantirish dasturlarni tuzishga asos bo‘ladigan didaktik parametrlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu ayniqsa, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini jadallashtirish, kamchiliklarni tuzatish, nazorat qilishning tashkiliy - funksional modelini ishlab chiqish, o‘quv faoliyati natijalarining DTSga mosligini ta’minlash, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajalarini sertifikatlash tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayni paytda, rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlarida o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga asoslangan “Core Subjects”, “German School Academy” kabi dasturlarni qo‘llash zarurati paydo bo‘ldi.

Ma’lumki, har qanday fanni rivojlantirsh didaktik tamoyillarga pedagogik texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, o‘quvchi shaxsini tarbiyalashga yo‘naltirilmog‘i lozim. Pedagogik texnologiya nazariyasining markazida ta’lim jarayonining rahbari, ayni vaqtda, ushbu jarayonning ham sub’yekti, ham ob’yekti bo‘lgan o‘qituvchi va o‘quvchilar turadilar. Shunday ekan, ushbu sub’yektlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, o‘zaro muloqot, ularning bir-birlariga nisbatan ko‘rsatadigan aks ta’sirlari eng zamonaviy talablarga javob bera olishi zarur. Buning uchun o‘qituvchi, eng avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan qo‘yiluvchi talablar, ta’limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo‘llari, o‘quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar, u bilan hamkorlik qilish, uni o‘qish va o‘rganishga yo‘naltirish, o‘quvchi

ISSN 3030-3907

shaxsi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va kelishmovchiliklarni birgalikda bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitini hosil qilish, o‘quvchi faoliyatini aniq va to‘g‘ri baholashga imkon beruvchi metodlar bilan qurollangan bo‘lishi lozim.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimini baholash deb, o‘quvchi oldiga qo‘yilgan vazifalarni o‘quv predmetlari bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari (DTS) talablari bilan solishtirish orqali belgilash, erishilgan intellektual - ma’naviy darajani aniqlashdir.

O‘quvchilarning intellektual - ma’naviy rivojlantirishda bahoning didaktik imkoniyati juda ham katta. Xususan, baho pedagogik, falsafiy hamda psixologik mohiyat kasb etib, o‘quvchining o‘quv hamda ijtimoiy faoliyatiga bo‘lgan tashqi va ichki munosabatini ifodalaydi. Bahoning didaktik imkoniyatlari ham ko‘p bo‘lib, bularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin.

- o‘quvchilarning o‘quv - biluv faoliyatini jadallashtiradi yoki ijobiy xarakter sari rag‘batlantiradi.

- o‘quvchining o‘z faoliyatidagi yutuq hamda kamchiliklarni anglagan xolda ularni tuzatish hamda buning natijasida intellektual - ma’naviy yuksalish sari undaydi.

- o‘quvchi tomonidan istiqbolda o‘zi bajaradigan o‘quv harakatlarini rejalashtirishga va shu asosda o‘zining ma’naviy - intellektual taraqqiyot dasturni tuzishga yo‘llaydi.


- o‘quvchilarning o‘zini shaxsiy harakat dasturi bajarilishini nazorat qilish va mazkur dasturni takomillashtirishga asos yaratadi.

O‘quvchining o‘quv faoliyatini baholash uning intellektual - ma’naviy darajasi rivojlanishi hamda pedagogik qo‘llab - quvvatlash nuqtai nazaridan yondashilganda o‘quv jarayoninig barcha bosqichlarida nihoyat zarurdir. O‘quvchilarni o‘quv faoliyati natijasini baholash ularning o‘z xato va kamchiliklarini e’tirof etishi, tushunishi, ularning o‘z kuchi bilan bartaraf etishiga imkoniyat yaratishini ta’minlaydi. O‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faoliyatlarini baholash orqali o‘qituvchi ham o‘zining kelajakdagi bajarishi lozim bo‘lgan strategik maqsadlarini aniqlaydi va rejalashtiradi.

O‘quvchilarning intellektual - ma’naviy darajasini rivojlantirish jarayoni o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, u o‘zida qadriyatli, maylli, kognitiv, xissiy - ixtiyoriy, faoliyatli hamda refleksiv holatlarni mujassamlashtiradi. Shu bilan bir qatorda baho yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini kuzatishi hamda ularning intellektual - ma’naviy taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilab olishi mumkin. Baho o‘quvchini rag‘batlantiruvchi va uning intellektual - ma’naviy darajasi rivojlanishini ta’minlovchi kuchga ham egadir.

ISSN 3030-3907

Xususan o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, ko‘proq mustaqil bilim olishlarini ta’minlash, ularni jismoniy jihatdan rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini egallashga undash, har bir darsda o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlarini taqdim etish va o‘zlashtirilgan bilimlarni baholash jarayonida o‘quvchilarning ota - onalari, mahalla va o‘z - o‘zini boshqarish organlarini ham ushbu jarayonga jalb qilish mexanizmi ishlab chiqilgan.



1-rasm. Baho - maktab - oila hamkorligini ta’minlovchi vosita.

Raqamlarda ifodalangan va o‘quvchilar mehnatiga qo‘yilgan muayyan baho nafaqat fan o‘qituvchi uchun muhimdir, chunki o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro g‘ayritabiiy munosabat o‘quvchilar mehnatiga to‘g‘ri baho bermaslik natijasida kelib chiqadi. Ammo o‘quvchilarning ko‘p qirrali bilish faoliyatlarini aynan bitta ball bilan baholash ham mumkin emas. Haqqoniy baho o‘quvchi intellektual - ma’naviy faoliyatini boshqarish hamda rivojlantirish imkoniyatiga egadir.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan o‘quvchilarga faqatgina bilim berish emas, balki ularni har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va umustaqil, tanqidiy, innovatsion fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shakli innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’limdir. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tiladigan fanlar ichida texnologiya fani o‘quvchilarni hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qaysidir ma’noda texnologiya darlarini “O‘quvchilarni hayotga tayyorlash laboratoriyasi” deb qarashimiz mumkin. Texnologiya darslari mazmuni 5-7 sinflarda ikki qismdan qiz bolalar va o‘g‘il bolalar mehnatidan tashkil topgan. Bunda qiz bolalar oddiy chok turlaridan boshlab tayyor keyim tikishgacha, yoki oddiy salat tayyorlashdan tortib milliy taomlarni tayyorlash jarayonlarini o‘rgansalar , o‘g‘il bolalar esa yog‘och va metal turlaridan tortib eng oddiy ta’mirlash ishlari, yog‘och, metall va polimerlardan tayyor buyumlar tayyorlash kabi texnologik jarayonlarni o‘rganadilar.

O‘quvchi yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, ya’ni ularni har tomonlama davlat ta’lim standartlari talablariga javob beradigan yetuk malakali mutaxassis darajasida tayyorlash mamlakatimizning dolzarb vazifalaridan biridir. Harakatlar strategiyasi

ISSN 3030-3907

asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli, 2017-yil 6-aprelda “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarorlari qabul qilinganligi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish hamda uzviyligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinishi ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilinayotganligidan dalolat beradi, deb aytish mumkin. Hozirgi kunga kelib deyarli barcha fanlarni o‘qitishda xalqaro baholash mezonlaridan keng qo‘llanilib kelinmoqda. Texnologiya fani darslari maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik tamoyillarni qo‘llashda, uning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O‘quvchilar bilish faoliyati bilangina emas, balki yaratish faoliyati bilan ham shug‘ullanadilar.

Texnologiya fani mehnat qurollari, jarayonlari oddiy o‘rganish obyekti sifatida emas, balki o‘quvchilar amaliy ishlarini faollashtiruvchi ko‘rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta’limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga texnologiya fanini o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari bor. Dars jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning mavqeyi kun sayin ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bugungi ta’limning imkoniyatlarini yanada kengaytirib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib istalgan joydan turib istalgan ilm maskaniga xohlagan vaqtda zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qish imkoniyatini bermoqda. Bu esa an’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq ham vaqtni ham xarajatni kamaytirishiga erishilib ta’lim jarayonini sezilarli darajada rivojlanishiga olib kelmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

– materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma’lumotlarni o‘rganish;

– texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehna operatsiyalarini bilish;

– texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo‘llay olish;

ISSN 3030-3907

– texnik va kreaktiv fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;

– texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;

– buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish;

– ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

O‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini tekshirish va baholash o‘quv jarayonini sifatli asosda olib borishda muhim rol o‘ynaydi. Bu muhimlikning ahamiyati shundaki, birinchidan, o‘quvchilar dars jarayonida dars materiallarini qanchalik darajada tushunganlari, ular bo‘yicha qanchalik miqdorda o‘zlariga o‘zlashtirib olganliklari, keyingi dars jarayonlarida qanday o‘zlashtirish kerakligi bo‘yicha o‘zlariga xulosa oladilar. Ikkinchidan, dars mashg‘ulotlarini olib borayotgan o‘qituvchilar o‘zlarining o‘rgatish mehnatini qanchalik darajada samara berganliklarini, yo‘l qo‘ygan kamchiliklari, keyingi dars mashg‘ulotlarida nimalarga e’tibor qaratish kerakligini bilib olishga yo‘llanma bo‘ladi. Shu boisdan ham o‘quv jarayonini o‘zlashtirgan bilimlarini tekshirish va baholashsiz olib borish yaxshi natija bermaydi, aniqrog‘i o‘quv jarayonini o‘zlashtirgan bilimlarini tekshirish va baholashsiz olib borish mumkin emas. Uchinchidan, o‘quvchilarni o‘quv jarayoni davomida o‘zlashtirgan bilimlarini miqdoriy sifatini aniqlash va ularga o‘quv jarayoni mobaynida o‘zlashtirish xulosasini berish va shu asosda o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini bo‘yicha dalillar asosida hujjat berish mumkin bo‘ladi.

O‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini tekshirish va baholash bo‘yicha bir qancha nizomlar mavjud:

– reyting tizimining asosiy vazifalari o‘quvchilarda Davlat ta’lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

– o‘quvchilar bilimi, ko‘nik ma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari Davlat ta’lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta’minlash;

– fanlarning o‘quvchilar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o‘zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

– o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish; o‘quvchilar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma’lum qilish;

– o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha kompleks hamda uzluk siz tayyorgarligini ta’minlash;

ISSN 3030-3907

– o‘quv jarayonining tashkiliy ishlarini kom pьyuterlashtirishga sharoit yaratishdan iborat.

Fanlar bo‘yicha o‘quvchilar bilimini har o‘quv chorakida baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda o‘quvchilarga e’lon qilinadi. O‘quvchilarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun – o‘quvchilarning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli bo‘lgan, nazoratlar fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, dars jarayonlari, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarida og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan nazorat ishilar; o‘quv choragi davomida o‘quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin o‘quvchining bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli hisoblangan (bir chorakda ikki martadan ko‘p o‘tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda soni belgilanadigan nazoratlar; chorak yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli bo‘lgan, tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “yozma ish” shaklida o‘tkaziladigan choraklik oxirida olinadigan nazorat turlariga bo‘ladi.

O‘quv yili tugaganidan keyin reyting nazorati natijalariga ko‘ra o‘quvchilarni keyingi sinfga o‘tkazish to‘g‘risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi. Har bir fan bo‘yicha o‘tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o‘zida o‘quvchilar e’tiboriga yetkaziladi. Yakuniy nazorat natijalariga ko‘ra fan o‘qituvchisi o‘quvchilarning fan bo‘yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to‘ldiradi. O‘quvchining reytingi uning bilimi, ko‘nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. O‘quvchining o‘quv yili bo‘yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to‘plangan reyting ballari yig‘indisi orqali aniqlanadi. O‘quvchilar umumiy reytingi har bir o‘quv choragi va o‘quv yili yakunlangandan so‘ng e’lon qilinadi. O‘quvchiga imtiyozli shahodatnoma belgilashda uning har bir o‘quv yili yakunidagi fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi hisobga olinadi.

Demak, o‘quvchi va o‘quvchilarni o‘zlashtirish jarayonlari ta’lim jarayonini ajralmas qismi sifatida albatta bo‘lishi kerak, sababi busiz o‘quvchi ham o‘qituvchi ham o‘quv jarayonida yaxshi samaralarga erisha olmaydi.

ISSN 3030-3907

O‘quvchilar o‘zlashtirishini nazorat qilishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Fan va texnikaning taraqqiyoti kishilarning umum ta’limiy va kasbkorlik tayyorgarligiga tobora yuksak talablar qo‘ymoqda. Hozir ta’lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etishda faqat bilimlarni o‘zlashtirish hamda amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilishni ko‘zda tutish mumkin emas. Ta’lim jarayonida bilimlarni mustaqil holda to‘ldirish va ularni nazariy hamda amaliy vazifalarni hal qilishda qo‘llash ehtiyoji va ko‘nikmalarini shakllantirish ham nihoyatda zarurdir.

Bilimlar, umummehnat ko‘nikmalari va malakalarini tekshirish o‘quvchilarga mehnat ta’limi berish, ularni tarbiyalash sifatini oshirishning ta’limi natijalarini o‘z vaqtida tekshirish o‘quvchilarda bilimlar va ko‘nikmalari sifati uchun javobgarlik hissini rivojlantirishga yordam beradi, ularning intizomini yaxshilaydi va o‘zlariga nisbatan talabchan bo‘lishni o‘rgatadi, ishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka va o‘zini doimiy ravishda kamol toptirib borishga undaydi. Bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish o‘quvchilar kasbkorlik tayyorgarligi darajasini aniqlashga yordam beribgina qolmasdan, shu bilan birga yana bir muhim vazifani ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar va mehnat ko‘nikma hamda malakalarini mustahkamlash vazifasini ham bajaradi.

O‘qituvchining muhim didaktik vazifasi o‘quvchilarning dastur materialini to‘la o‘zlashtirishlariga erishishdan iboratdir. Ta’limning natijasi to‘laqonli bilimlar bo‘lishi lozim. Bunday bilimlar o‘quvchilarda mumkin qadar yuksak saviyada tarkib topgan alohida sifatli bilim va ko‘nikmalar majmuidir. O‘quvchilarning o‘zlariga xos va psixologik xususiyatlari har xildir. Shuning uchun ulardagi bilimlarning sifati ham turlicha bo‘ladi. Masalan, xotirasi kuchli o‘quvchilar dastur materialini darrov eslab qoladilar, ya’ni ularda bilimlarning to‘laligi muvaffaqiyatli shakllanadi, lekin bilimlarning mustahkamligi sekin shakllanishi mumkin. Bundan tashqari bilimlarning tizimliligi sekin shakllanadigan o‘quvchilar ham bor. Shuning uchun o‘qituvchi audatoriyadagi bir o‘quvchining o‘ziga xos va psixologik xususiyatlarini bilishi shart. Busiz o‘quvchilarni to‘laqonli bilimlar bilan qurollantirib bo‘lmaydi. O‘quv faniga qiziqish, amaliy vazifalarni qilish yoki boshqa fanlarga doir materiallarni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun dastur materialini o‘zlashtirishi zarurligini anglash, o‘quvchilarning yangi materilni o‘zlashtirishga tayyorligi, mashg‘ulotning amaliy yo‘nalishi, ta’lim natijalarini nazorat qilishning ob’ektivligi, materialning hajmi va murakkabligi uni o‘rganish uchun ajratilgan vaqtga muvofiqligi o‘quvchilarda sifatli bilimlar shakllanishining muvofiq shartlaridir.

Texnologiya ta’limi bo‘yicha o‘quvchilar o‘zlashtirishini nazorat qilishni tashkil etishda bilimlarning chuqurligi, to‘laligi, operativligi, aniqligi, umumlashganligi, kengligi, tizimliligi, ongliligi va mustahkamligi kabi sifatlarini

ISSN 3030-3907

ma’lum darajada tekshirish va hisobga olish zarur. Texnologiya ta’limi bo‘yicha o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini tekshirish va baholashning asosiy ob’ektlari: bilim, mehnatni rejalashtirish, ish o‘rnini tashkil qilish, xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalari, mehnatning usullari va jarayonni, amaliy ishda bilimlardan foydalanish, mehnat topshirig‘ini bajarish sifati, chizmalarni o‘qish, konstruksiyalash, modellash tirish, modelni yig‘ish, mahsulot va materiallarga turli xilda ishlov berish, elektr zanjirni yig‘ish ko‘nikmalaridan; shaxsning ma’naviy-irodaviy xususiyatlari (mehnatsevarlik, mustaqillik va hokazolar)dan, sarflangan ish vaqtining miqdoridan iboratdir.

Texnologiya ta’limi mobaynida o‘qituvchi o‘quvchilar mehnati jarayoni va uning natijalarini tekshirishda ishlab chiqilgan baho normalaridan foydalanib, eng avvalo ulardagi bilim va ko‘nikmalarning sifat saviyasini, ular ishning usullari va yo‘llarini qanchalik o‘zlashtirganini, ish vaqti normasini qanday bajargani va hokazolarni aniqlashi kerak.

Bilimlarni, ijodiy ishlarning, yozma-grafik topshiriqlarning va laboratoriya amaliy ishlarning bajarilishini tekshirish bo‘yicha baho normalari o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan asosiy talablar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, mana shu talablarga muayyan darajada rioya qilingani uchun «5», «4» va hokazo baholar qo‘yiladi.

Texnologiya ta’limida bundan tashqari, o‘qituvchilarga reyting tomonidan ishlab chiqilgan o‘zlashtirishni tekshirishni “reyting tizimi” tavsiya qilinadi. Bunda o‘zlashtirish natijalari ma’lum bir qabul qilingan ballar bilan baholanib, so‘ngra umumiy natijalar baholarga aylantiriladi. Mazkur normalarida tekshirishning asosiy ob’ektlari hisobga olingan va bular o‘qituvchiga o‘quvchilar mehnatini umumiy yo‘sinda, yakka tartibda nazorat qilish imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan baho normalarining muhim xususiyati shuki, ular o‘qituvchilar, ishlab chaqarish ustalarning o‘zi emas, balki o‘quvchilar ham tushunishiga va foydalanishiga mo‘ljalangan. O‘quvchilar baho normasini bilishlari, tushunishlari, ta’limiy va amaliy ishlarda mazkur normalarning talablariga iloji boricha rioya qilishga intilishlari kerak. Agar o‘quvchi o‘qituvchining mehnat natijalariga qo‘yiladigan talablarini oldindlan bilsa, unga guruh jurnalidagi baho nima uchun qo‘yilganini har gal tushuntirib o‘tirish zarur bo‘lmaydi.

O‘quvchilarga texnologiya ta’limi yo‘nalish fanlarini o‘qitishda nazariy va texnik-texnologik bilimlar o‘rgatiladiki, ulardan foydalanish o‘quvchilarning sifatli va unumli ishlashiga yordam beradi. O‘quvchilardagi bilimlar sifatining darajasini faqat o‘quvchilar mehnatining natijalariga qarab haqqoniy va aniq tekshirish mumkin. Lekin bu so‘z o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarini amaliy ish boshlanmasdan oldin tekshirmasligi kerak, - degani emas. Gap shundaki,

ISSN 3030-3907

o‘quvchilar texnologiya ta’limi dasturida ifodalangan bilimlardan amaliy ishni boshlashda, jumladan, mehnatni to‘g‘ri rejalashtirishda, zagotovkalarning o‘lchamlarini hisoblashda, parmalanadigan teshiklar diametrini belgilashda foydalanishlari zarur. Buning uchun o‘quvchilarning bilimlarini differensial yo‘sinda baholash, ya’ni dastur materialining to‘la o‘zlashtirilganini, o‘z bilimlarini so‘z bilan bayon etish ko‘nikmasini alohida baholash lozim. Ana shularni hisobga olib quyidagi «baho normalari»da sifat va miqdor ko‘rsatkichlari beriladi. Sifat va miqdor mezonlaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirishini haqqoniy baholash imkonini beradi. O‘rtacha ko‘rsatkichlarga qarab esa o‘qituvchi ishining ayrim jihatlari haqida fikr yuritish mumkin. Bilimlar sifatini tekshirish bo‘yicha baho normalarini ko‘rsatmali qo‘llanma sifatida ishlab ustaxonaga ilib qo‘yish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, ko‘rsatmali qo‘llanmaning oxirida izoh o‘rnida dastur materialini o‘rganishda texnik mehnatga doir so‘zlar va tu shunchalarni puxta eslab qolish, og‘izaki javobda fikrlarni “texnika tili” bilan ifodalash, ya’ni texnikaga doir so‘zlar va tushunchalarni to‘g‘ri qo‘llash hamda talaffuz etish, laboratoriya-amaliy ishlarni, yozma-grafik topshiriqlarni va amaliy ishlarni sifatli bajarish uchun bilimlar kerakligi kabi bandlarni yozib qo‘yish lozim. Maktablarda, maktablararo o‘quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida, maktablararo o‘quv-ishlab chiqarish kombinatlarida anchagina ixtisoslik va mutaxassliklar bo‘yicha ta’lim beriladi. Lekin ularda ayrim hollarda yangi ixtisosliklar kiritilganda hozircha ilmiy jihatdan asoslangan va amalda tekshirilgan “baho normalari” yo‘qligi uchun o‘qituvchilar o‘zlari “baho normalari”ni ishlab chiqishlari zarur.

– o‘quvchilarning nazariy texnika va texnologiyaga doir bilimlari hamda ko‘nikmalari bo‘yicha baho normalarini ishlab chiqishda texnologiyaga, texnikaga, iqtisodiyot va mehnatni hamda ishlab chiqarishni tashkil etishga doir nazariy bilimlarni; texnologiyaga va konstruktorlikka doir hujjatlarni bilishni (tushunishni va zarur bo‘lsa, tahlil qilishni):

– asosiy texnologik operatsiyalar va texnologik jarayonlarni bilishni;

– navbatdagi ishni rejalashtirishda mustaqillikdan, ish o‘rni ratsional tashkil qilish; tekshirish, sozlash, rostlashdan (masalan, dastgohni sozligini tekshirishdan, moslama yoki qolipni sozlashdan, tirqish va hokazolarni rostlashdan);

– mustaqil holda boshqarish, ishlash, qayta tik lash, tanlash va hokazolardan; tanlashni asoslash;

– ishlov rejimi, bo‘yoqning rangi, ishlov usullari, texnologik operatsiyalari va hokozolar nima uchun shunday tanlanganini isbotlashdan;

– asosiy asboblarni (qirqish, o‘lchash, tekshirish moslamalarini, priborlar, agregatlar, mashinalarni, ularning vazifasini, ishlash prinsipini, boshqarilishi, tuzatilishi va hokazolarni) bilishni;

– xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalarini bilishni;

ISSN 3030-3907

– asosiy adabiy manbalarni, ta’limning texnik vositalarini va ulardan foydalanishni bilishni;

– har xil o‘quv fanlari (matema tika, kimyo, fizika va hokazolar) bo‘yicha tegishli ma’lumotlardan foydalana olish ko‘nikmasini;

– ishlab chiqarish mazmunidagi masalalarni hal qilish (ashyolarning zarurligini, ularni ishlash rejimlarini hisoblash va hokazolar) uchun turli bilimlar dan mustaqil foydalanishni;

– buyumlar tayyorlashning yoki qandaydir ishni bajarish ning sifatini nazorat qilish ko‘nikmasini bo‘yicha ishlab chilib taklif qilinayotgan umumiy mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa.

Shunday qilib, bilimlar, umummehnat ko‘nikmalari va malakalarini tekshirish o‘quvchilarga ta’limi-tarbiya berish sifatini oshirishning natijalarini o‘z vaqtida tekshirish o‘quvchilarda bilimlar va ko‘nikmalari sifati uchun javobgarlik hissini rivoj lantirishga yordam beradi, ishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka va o‘zini doimiy ravishda kamol toptirib borishga undaydi. Bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar va ko‘nikma hamda malakalarini mustahkamlash vazifasini ham bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Каххоров С. К., Жураев Х. О., Хамдамова Н. М. Использование учебных материалов по источникам альтернативной энергии в интеграции на уроках физике //Инновации в науке. – 2019. – №. 5 (93). – С. 17-24.

2.Khamdamova N. USING OF ALTERNATIVE ENERGY SOURCES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVITY.

3.Muqimovna K. N. DEVELOPMENT OF TECHNICAL CREATIVITY OF STUDENTS WITH THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – Т. 7. – С. 44-49.

4. Жўраев А. Р., Сайфуллаева Д. А., Бахронова Ш. ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ҚИЛИНАДИГАН ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 169-176.

5.Yuldoshev, S., Savriev, S., Murtazoyev, A., & Khojiev, S. (2022). NUMERICAL SIMULATION OF THREE-DIMENSIONAL TURBULENT JETS OF REACTING GASES. Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences, 2(6), 73-82.

6.Shomirzaev M.X. Maktab texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikning spektral-variativ komponentlarini fanlararo takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) diss. - Toshkent, 2021. – 219 b.

ISSN 3030-3907

7. Mamatov D.N. Elektron axborot-ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. PhD dok.dis. –Toshkent, 2017. – 150 b.
8. Qodirov B.E. Elektron axborot ta'lim muhitida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi. Dis p.f.f.d. (PhD) – Termiz.: 2021. – 143 b.
9. Islamovna B. S., Ubaidilloyevna D. N., Norjona P. MODERN COMPETENCES OF ORGANIZING TECHNOLOGY COURSES //SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 146-151.
10. Baxronova S., Davlatova N. TEXNOLOGIYA FANIDAN MASHG 'ULOTLARNI TASHKIL QILISHNING ZAMONAVIY KOMPETENSIYALARI //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 64-68.
11. Baxronova S., Davlatova N. BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI TIKUVCHILIKKA OID KREATIV RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – T. 2. – №. 7. – C. 144-148.
12. Kazakov F. et al. Methods to improve hackles in the production of quality yarn //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2021. – T. 2094. – №. 4. – C. 042091
13. Ruzieva D. CLASSIFICATION OF SOFTWARE EDUCATIONAL TOOLS FOR USE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 41-45.
14.Rayimova D. D. et al. TEXNOLOGIYA TA'LIMI PRAKTIKUMI FANINI O 'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASH IMKONIYATLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 616-619.
15.Ruzieva D. M. FEATURES AND ADVANTAGES OF THE STRUCTURE OF BAKED THREADS USED IN THE PREPARATION OF SEWING PRODUCTS //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 17. – C. 401-408.
16.Texnologiya ta'limi praktikumi fanini o 'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo 'llash imkoniyatlari D.D. Rayimova, S.I.Bahronova, D.M. Ruziyeva, N.U. Davlatova Educational Research in Universal Sciences 2 (5), 616-619
17. Innovative Technologica: Methodical E.T. Rustamov, D.D Rayimova Research Journal 2 (06), 37
18.Characteristics of technical creativity in technological education. Innovative technologica methodical research journal. 2021 E.T.Rustamov, D.D Rayimova, M.J Jabborova, ..B-37-41

ISSN 3030-3907

19.Rustamov, Erkin Toxirovich, and Nozim Qayumovich Idiyev. "CHIZMA BAJARISHDA OQUVCHILAR YOL QOYADIGAN TIPIK XATOLAR." Интернаука 20-2 (2018): 58-60.
20.Рустамов, Эркин Тохирович, and Джамал Рашидович Уринов. "НАХОЖДЕНИЕ ТЕНИ МНОГОГРАННИКОВ В ОРТОГОНАЛЬНЫХ ПРОЕКЦИЯХ." COVID-19 и современное общество: социально-экономические последствия и новые вызовы. 2020.
21. B. Sh. I., Dilmurodovna, R. D., Tohirovich, R. E., & Norjona, P. (2023). TEXNOLOGIYA FANINI O ‘QITISHDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASH METODIKASI. Ta’lim fidoyilari, 4(1), 191-197.

22. Dilmurodovna R. D. XALQ HUNARMANDCHILIGI NAMUNALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH (ZARDO‘ZLIK SAN’ATI MISOLIDA) //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 27. – С. 9-12.
23. Dilmurodovna R. D. XALQ HUNARMANDCHILIGI NAMUNALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH (ZARDO‘ZLIK SAN’ATI MISOLIDA) //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 27. – С. 9-12
24.Davlatova N. TEXNOLOGIYA FANINING “SERVIS XIZMATI” YO‘NALISHIDAN TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Science and innovation in the education system. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 82-86.
25.Ubaydillayevna D. N. et al. THE ROLE AND IMPORTANCE OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS //PEDAGOGS. – 2024. – Т. 53. – №. 1. – С. 8-12.
26.Ruzieva D. M. FEATURES AND ADVANTAGES OF THE STRUCTURE OF BAKED THREADS USED IN THE PREPARATION OF SEWING PRODUCTS //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 401-408.
27.Razzoqovich J. A. et al. TEXNOLOGIYA FANINING “SERVIS XIZMATI” YO ‘NALISHIDAN TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Наука и технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 3.
28. Kh.S. Akhmadov, N.M. Nazarova, A.R. Juraev, I.Y. Avezov “Technical and economic analysis, calculation and justification of hydrogen production through solar thermochemical reactor in Republic of Uzbekistan E3S Web of Conferences 524, 01016 (2024) APEC-VII-2024. (Scopus Conference).
29. A.R. Jo‘rayev, Sh.X. Xazratova “Milliy hunarmandchilik maktablarida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yo‘naltirish “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar”. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2021 y. № 7. Buxoro sh. 249-255 b.

ISSN 3030-3907